

Abdulmo'min



## Abdulmo'min ibn Abdullaxon

(1568-1599)

(1582-1599)

Balx va Badaxshon hokimi (1582-1598). 1598-99 yillarda Buxoro xoni bo'lgan. 1589 yildan otasi **Abdullaxon II** bilan munosabatlari keskin yomonlashgan. Chunki Abdullaxon II Hirotni Safaviylardan qaytarib olgach, uni o'z o'g'li qolib, *Qulbobo Ko'kaldoshga* in'om qiladi. Buning ustiga u Xurosondagi noiблari – Qulbobo ko'kaldosh, Dinmuhammad sulton va boshqa;arga yozma farmon jo'matib, Abdulmo'minga itoat etmaslikni va xatto biror qulay fursatdan foydalanib uni jisman yo'q qilishni buyuradi. Shuningdek, u Niso, Obivard va Durun hokimi Nurmuhammadxonni qollab- quvvatlab uni Abdulmo'minga qarshi urushga undaydi. Bundan darg'azab bo'lgan Abdulmo'min 1597 yilning kuzida otasiga qarshi bosh ko'tarib, Balx va Badaxshon qo'shini bilan Amudaryo bo'yiga kelgan. Abdullaxon II ning qo'shini Nasaf (Qarshi) atrofida joylashgan. Abdullaxonga ko'makka viloyat hokimlari – masalan, Axsi va Andijon hokimi O'zbek sulton o'z qoshinlarini yuborgan. Buxoro va Balx ulamolari aralashuvi bilan Abdulmo'min va Abdullaxon II o'rtasidagi nizolarga vaqtincha barham berilgan. Abdulmo'min 1598 yil 8-fevralda amir Muhammad Boqibiy bilan kelishib otasi Abdullaxon II ni zaxarlab o'ldiradi. Abdulmo'min otasi Abdullaxon II vafot etgach, Buxoroga qaytib taxtni egallagan.tuxtga o'tirganidan so'ng, otasining yaqin kishilari hamda o'zining Farg'ona va Toshkentdagi barcha shayboniy qarindoshlarini zolimlarcha qatl ettirishi mamlakatda isyon ko'tarilishiga olib kelgan. U Eron safaviylari bilan Xuroson uchun kurashni davom ettirgan. Abdulmo'minning tuktga o'tirganidan olti oy o'tgach, Zomindan Samarkand tomon keloyatganda otasining amirlaridan biri – Abdulvose' uni otib o'ldiradi.

Abdulmo'min mo'ng'ullar vayron qilgan Balx qal'asini qayta qurdirgan, Balxdagi Xoja Abu Nasr Porso mozorida hashamatli ko'shk bunyod ettirgan.

2023-10-31 23:13:12